AVESTODA MUSIQIY TA’LIM VA TARBIYAGA OID QARASHLARNING AKS ETISHI

Zulxumor Mamarasulzoda,
JDPI, Musiqa talimi kafedrasi o‘qituvchisi

Saidiy Said Bolta-Zoda,
San’atshunoslik fanlari nomzodi, professor.
O‘zbekiston Kompozitorlari va bastakorlari uyushmasi a’zosi, kompozitor.
Xalqaro “Antique World” ilmiy akademiyasi akademigi.

Annotatsiya: Maqolada Avesto davrining musiqiy qarashlari va Zardushtiylik diniy qo‘shiqlarining inson olamidagi ta’siri va musiqiy ta’lim va tarbiya asoslari hamda ushbu davr musiqiy maktablaridagi turli ijrochilik uslublari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Zardusht, Ho zam-zam, Mozandaron, Spitamen, Borbad, Navro‘z, “Yazdon Ofarid”, ”Dodofarid”, “Oini Jamshed”, “Xurushi Mug‘on”, Var, Skif.

Musiqa san’ati eng qadimgi davrlardan boshlab Markaziy Osiyo hududlarida yashab kelgan xalqlar madaniyatining ajralmas qismi hisoblangan. Uning yo‘nalishlari, janrlari, shakllari o‘zbek xalqining ajdodlari bo‘lmish hozirgi O‘rta Osiyo, Afg‘oniston, Pokiston, Eron va Sharqiy Turkiston hududida yashagan qadimgi so‘g‘diylar, xorazmiylar, parfiyaliklar, baqtriyaliklar ijodiy faoliyati va tafakkurining mahsuli sifatida asrlar davomida shakllanib taraqqiy etib kelgan. Shuningdek bu san’at turining rivojlanishiga Xitoyning shimoliy chegeralaridan to sharqiy Yevropagacha cho‘zilgan ulkan mintaqaning dasht, o‘rmon-dasht, tog‘lik o‘lkalarida yashagan (skif, savromat-sarmat, sak-massaget) xalqlarning ta’siri ham nihoyatda katta bo‘lganligini isbotlovchi dalillar yetarli.

O‘rta Osiyo xalqlari ma’naviyatining shakllanishiga katta ta’sir ko‘rsatgan ilmiy-tarixiy, diniy-falsafiy va axloqiy-ta’limiy asoslar, avvalo, payg‘ambar Zardusht tomonidan yaratilib, shakllangan zardushtiylik ta’limoti bilan aloqadordir. Zardushtiylik ta’limoti minglab yillar davomida yashab faoliyat

ko‘rsatib kelgan insonlarning jamiyat va tabiatga bo‘lgan munosabatlarining in’ikosi sifatida shakllandi. Zardushtiylik ta’limotining muqaddas kitobi hisoblangan “Avesto” bitiklarida ilgari surilgan g‘oyalar esa ajdodlarimiz hayoti, turmush tarzi, urf-odatlari, diniy e’tiqodi va aqidalarini o‘zida mujassamlashtirgani shubhasizdir. Zardushtiylar ta’lim jarayoni yakunida egallanishi shart bo‘lgan bilimlar qatorida musiqa bilimi, musiqiy madaniyat yo‘nalishi asosiy o‘rinlardan birini egallagan.

O‘rta Osiyoda musiqa madaniyatining rivojlanishi va namoyon bo‘lishining muhim qirrasi harbiy qo‘shin, muntazam armiya faoliyati bilan bog‘liq holda namoyon bo‘ladi. Tarixdan ma’lumki, eramizdan oldingi VII- asrdayoq ajdodlarimiz o‘zlarining aniq qoida-qonunlarga bo‘ysungan, tuzilma sifatidagi muntazam armiyalariga ega bo‘lgan. Turli xil turdagi qo‘shinlardan tuzilgan armiya tarkibida harbiy musiqachilar ham alohida o‘rin egallagan. Plutarx parfiyaliklar armiyasida qozonsimon urma zarbli asboblardan keng foydalanilganligi to‘g‘risida hikoya qiladi. Chunonchi, 53- yil 9- may kunida Krass boshchiligida rimliklar armiyasi parfiyaliklardan qaqshatqich mag‘lubiyat alamini tortadi. Jang oldidan o‘zlarini ruhlantirish va dushmanni vahimaga solish maqsadida parfiyaliklar atrofida mis qo‘ng‘iroqlari ilib qo‘yilgan, teri tortilgan ulkan chertma asboblarini chalib shovqin-suron ko‘targanlar. Bu harbiy usuldan keyinchalik, Iskandar Zulqarnayn, Chingizxon, Amir Temur kabi jaxongirlar ham o‘z yurishlarida keng foydalanishgan.[5.43-47]

Harbiy harakatlar va marosimlar o‘tkazilishi davrida ba’zi musiqa asboblari harbiylarning qurol-aslaha, tug‘, bayroq, tamg‘alari qatorida muhim ramziy belgi vazifasini bajargan.

“Avesto”da yozilishicha, qattiq qish kelib, barcha tirik jonzotlarning qirilib ketish xavfi tug‘ilganda tangri Ahura Mazda shoh Jamshidga oltin burg‘u hadya qiladi. Shoh burg‘uga puflaganda yer yorilib, inson va hayvonlar oltin burg‘u sadolari ostida Jamshid qurgan yer ostidagi shahar-**var**larga kiradilar.

Xozirgi Buxoro va Navoiy viloyatlari hududlarida **Var**axsha, **Var**zonze, **Var**ozun nomi bilan ataluvchi manzilgohlar borligi ham ushbu hududlar insoniyat

beshigi, yuksak madaniyat va ma’naviyat o‘chog‘i bo‘lganligini yana bir karra isbotlaydi. [5.98-103]

Saroy marosimlarini yuqori sifatda, ko‘tarinkilik kayfiyatida tashkil etish jarayonida ham musiqa san’atining alohida xususiyatlari ko‘zga tashlangan. Saroy musiqa amaliyoti shoh xizmatidagi falakiyotshunoslar tomonidan qat’iy belgilangan qoidalarga amal qilingan holda o‘tkazilgan. Shundan kelib chiqib, haftaning har bir kuni ma’lum bir mashg‘ulotlarni bajarishga ajratilgan. Masalan: shanba kuni hukmdorlar ko‘pchilik hollarda majlislar chaqirib, mas’ul ishlarni tegishli kishilarga bajarishni tayinlasa, yakshanba kuni mamlakat ichki muammolarini hal qilish haqida bosh qotirib, qonunchilik masalalari bilan shug‘ullangan. Dushanba kuni ovga chiqib, seshanbada chavandozlik, kurash va har xil harbiy o‘yinlar bilan mashg‘ul bo‘lganlar. Chorshanba kuni mamlakatning tashqi ishlariga ajratilib, qo‘shni va uzoq davlatlar elchilari qabul qilingan. Nomalar, maktublarga javob xatlari bitilgan.

Musiqa san’atiga alohida o‘rin ajratilib, dunyoviy “Farxangiston” va diniy “Dabiriston” maktablari vakillari chang, vin, barbat, tanbur hamda puflama cholg‘u asboblarini erkin tarzda chalib, diniy hamda qahramonlik mavzularidagi qo‘shiqlar kuylaganlar.

Saroy musiqasi mazmunida “Yazdon Ofarid”, ”Dodofarid”, “Oini Jamshed”, “Xurushi Mug‘on” kabi diniy-marosimiy qo‘shiqlar, tirik tabiatni inson bilan uyg‘unlikda his qilishga intilish natijasida yuzaga kelgan “Bog‘i Shirin”, “Romishi jon”, “Mashkuya” kabi lirik qo‘shiqlar, qahramonlik mavzusidagi “Surudi pahlavon”, “Surudi Mozandaron”, “Xurosoni” kabi qo‘shiqlar o‘z aksini topgan.

Ikki daryo oralig‘ida yashagan xalqlar qo‘shiqlari mazmunida, tabiatda hodisalar hamda mavsumiy o‘zgarishlarga munosabat tarzida «Oroishi Xurshed» (Quyosh jamoli), “Farruxro‘z” (Go‘zal kun), “Sabzai baxor” (Baxor ko‘klami), “Guljam” kabi qo‘shiqlar ijro etilgan. [8.49-52]. Qadimgi bayramlar ham turli musiqiy janrlar va shakllarning paydo bo‘lishida muhim rol uynagan.

Ahura Mazda tomonidan dunyoni yaratish boshlangan dastlabki kun, hamda afsonaviy shoh Jamshidning taxtga o‘tirish kunlari zardushtiylar tomonidan

Navro‘z bayramining nishonlanishida o‘z aksini topadi. Navro‘z bayrami bilan “Nozi Navro‘z”, “Navro‘zi buzurg”, “Navro‘zi Qayqubod”, “Navro‘zi Xoro” kabi qo‘shiqlar uzviy bog‘liq ravishda necha asrlardan buyon xalqimiz tomonidan sevilib, kuylanib kelinadigan qo‘shiqlar sarasiga kiradi.

Islomgacha davrda ajdodlarimiz musiqa madaniyatining rivojlanishi va taraqqiyoti Sosoniylar hukmronligi davri (22-651 yillar)da yuksak pog‘ona va cho‘qqilarga ko‘tarildi

Bu davrda ko‘plab tarixiy-badiiy, falsafiy, didaktik hamda musiqaga oid asarlar yozildi. Ular jumlasiga: “Xusrav Kavatan o‘ rizak”, (Xusrav Kavatan va uning mahrami), “Traniknoma” (qo‘shiqlar kitobi), “Ayni Xvarsandix” (san’atning nazariy va amaliy qoidalari) kabi bebaho asarlarni kiritish mumkin. [1.67-71]

Musiqiy taraqqiyotning cho‘qqisi sifatida qo‘shiqchi, sozanda, bastakor hamda yirik musiqa nazariyotchisi, sosoniylar davlati hududlarida yashovchi xalqlar tomonidan yaratilgan musiqa merosini umumlashtirib, ma’lum tizimga solgan Borbad (585-638 y) ijodini misol qilib keltirish mumkin.

Borbadning ijodiy merosi mana bir yarim ming yildan beri musiqashunoslar avlodi tafakkurining shakllanishiga ta’sir ko‘rsatib, hayratlanib keltirayotganligi sir emas. Ayniqsa “Xusrav Sarvod”, “Srot-i Xusrav”, “Xusravoni-at” kabi musiqiy asarlari keyingi davr musiqa madaniyatining rivoji uchun poydevor vazifasini bajardi. Borbad qadimgi kosmologik hamda astrologik tassavurlarni o‘z mazmunida jo qilgan mavjud musiqa materialini tizimga solib, hafta, oy va yil kunlari uchun davriy yangilanib turadigan maxsus qo‘shiqlar taqvimini yaratdi. Bu taqvim yettita “shoh qo‘shiqlari”, hamda 30 va 360 ta qo‘shiqlar guruhlarini o‘z ichiga olgan.

VII-asrga kelib arablarning Markaziy Osiyoga qilgan harbiy yurishlari ta’sirida ulkan hududlarning bosib olinishi hamda ushbu hududlarda islom dinining yoyilishi natijasida xalqimizning islomgacha davr musiqa san’ati bosqichi nihoyasiga yetdi. Mazmun va mohiyat jihatidan tamomila o‘zgacha, yangi din asosidagi mafkura bilan yo‘g‘rilgan islom musiqa madaniyati bosqichi shakllana boshlandi, oid juda ko‘plab ilmiy tadqiqotlar olib borilganligiga qaramasdan,

hozirgi kunda ba’zi manbalardan yangi axborotlar oqimi kirib kelmoqdaki, bu axborotlar manbalari ilgari o‘rganilmagan yoki ilmiy jamoa nazaridan chetda qolgan.

Mazkur maqolada biz avestoshunoslar maktabi uchun noan’anaviy hisoblangan ba’zi usullar yordamida qo‘lga kiritgan ma’lumotlarimiz sharhini berishga harakat qildik. Jumladan “Avesto”ning musiqaviy (ohang) asosi tahlil qilindi, qaysikim usiz “Avesto” matnlarining ming yillardan hozirgi kunga qadar mavjud bo‘lib, bizgacha yetib kelishini tasavvur qilish mumkin ham emasdi.

Eron va Hindistondagi hozirgi kunga qadar saqlanib qolgan zardushtiylar jamoasining mo‘bad va kohinlari “Avesto”ni ijro etishda asosiy e’tiborni kuy ohangi va ritmga qaratadilar. Bu jabhada ularning musiqiy ohanglarni qabul qilish va ijro etish imkoniyatlari juda yuqori ekanligini ta’kidlab o‘tish lozim.

Bizning fikrimizcha, “Avesto”ning keyinchalik musiqiy ohanglarga qo‘yilishi farazi qo‘yidagi mulohazalarimiz tufayli asossizdir:

а) Tarixda ”Avesto” ni musiqiy ohanglarga ko‘chirgan bironta ham bastakor nomi saqlanib qolinmagan. Chunki ulkan badiiy-adabiy yodgorlik matnlarini musiqiy ohanglarga ko‘chirish uchun bir yoki bir nechta zabardast bastakorlar faoliyat olib borishi zarur edi.

б) “Avesto”ning eng qadimgi qismlari “Goh” lar Zardusht tomonidan shaxsan yaratilganligi to‘g‘risida avestoshunos-tadqiqotchilar yakdil fikrga ega. Shu nuqtai nazardan fors-tojik va turkiy xalqlarning milliy merosi hisoblangan “Shashmaqom” dagi dugoh, segoh, chorgoh kuylarining negizi “Avesto” “goh” lariga borib taqalishini inobatga olgan holda, yuqoridagi fikrimizni isbotlashga hojat qolmaydi. [2.228-229]

в) Qadim zamonlardanoq ayon bo‘lganki, qo‘shiq tarzidagi matn, oddiy she’riy tarzidagi ifodali o‘qishdan ko‘ra tinglovchilarga yanada kuchliroq ta’sir ko‘rsatadi. (Gomer Argonavtlar ORFEY obrazi va hokaza misol keltirishim kerak). Shu asosda xalq dostonlarini va ilohiy qo‘shiqlar matnini kuylaydigan shamanlar, baxshilar faoliyatini misol keltirishimiz mumkin. [2.231-239]

Ushbu ijrolar Yashlarning ansambl dastasi ijrochiligida bajarilgan. Haqiqat bu kimdakim oliy hikmatga to‘g‘ri vorist kelsa.

Ezgulik –(Raxmdillik) kim unga erisha olsa. Bu ham tarbiyaning ustun tura oladigan oliy ne’matidir. Albatta Hind va Eron hamda Markaziy Osiyo madaniyati Evropa madaniyatidan ancha ilgari shakllangan bo‘lgan.

Avesto davrining musiqa san’ati Eron musiqa san’ati bilan hamohang bo‘lganligi bilan eng qadimgi an’analari dasturida Xorazmdagi musiqa ijrolar farqlanib borgan. Bu o‘rinda Hindistondagi Ramayana, Axura va yashtlarning musiqiy muomilasi bir –biroviga o‘xshash va farqlansa ham ma’lum darajada bir-birovi bilan yaqin aloqada hamohangda habardor suratlarda rivojlanib kelgan.

Zardushtiylar davrida Yuqorida nomlangan Buxoro “Dabiriston” maktabida “Ho-Zamzam” va harbiy qo‘shiq “Mozandaron” keng ommaviy jarayonda o‘qib kelingan va hozir ham Tojikiston Milliy Konservatoriyasi XOR jamoasida qadimgi tasniflanishini yo‘qotmay bir xil o‘qib kelinadi. [10.23-38]

“Ho-Zamzam”

O‘lchov -lar	Temp (tezlik) -lar m/m	Dinamik belgilar	Talqin etilishlar
1] 6/4 2] 4/4 3] 2/4	1] M:m = 60-80 2] M:m = 120 3] M:m = 140	P<f<PP<mf<f>sf$_2$>P<mf <f<ff>sf$_2$<f>fff	1]Orombaxsh. 2]Quvnoq, jo‘shqin, 3]Zavqona raqsbop
Usul-lar: ritmi			

“Mozandaron”

O‘lchov -lar	Tezliklar. m/m	Dinamik belgilar	Tavsif/ talqin etilishlar
4/4 12/8 6/8	M:m = 60-80 M:m = 140	f>mf>sf$_2$<f<ff>f> <sf$_2$>mf<f<ff<fff	1) Chaqiruvchan, 2) Hayajonli, 3) jangovor, 4) tantanali
usul lar:			

Baqtriya, Sug‘d hamda Markaziy Osiyoning boshqa viloyatlaridan topilgan yodgorliklardagi tasvirlarda jo‘r bo‘lib kuylash, yakka tarzda qo‘shiq aytish, raqs manzaralarini likopcha, doyra, nay va boshqa musiqiy cholg‘ular jo‘rligida ijro etilgan. Bu haqda M.Tarakanov quyidagi ma’lumotlarni beradi: «Milliy cholg‘ular qadimgi davrda ham bir necha guruhlarga bo‘linib, musiqiy vazifa bajarishiga ko‘ra alohida yo‘nalishlarga ega bo‘lgan. Ular sof cholg‘u ijrochiligi yo‘nalishi bilan birgalikda masharaboz va dorbozlar, harbiy yurishlar hamda turli marosim va bayramlar uchun moslashtirilgan».

Buyuk sharq mutafakkirlarining xalq cholg‘ularini o‘rganishga bag‘ishlangan qimmatbaho ma’lumotlari meros tarzida tarixiy ahamiyatga ega.

Ulardan eng qimmatlisi Abu Nasr Muhammad Farobiyning mashhur «Musiqa haqida katta kitob» (Kitobal-musiqaal-kabir) asari

Ulkan ahamiyatga ega. Farobiyning o‘zi ham ijrochi sifatida shuhrat qozongan. Kitobning ikkinchi qismi boshidan oxirigacha o‘sha davrda qo‘llanilgan musiqa cholg‘ulariga bag‘ishlangan. Bu bobda: lyutnya, ud, tanbur, nay, rubob, chang, shohruh, qonun kabi cholg‘ular izchil va batafsil ta’riflanadi. [10.41-46]

Farobiy torli muzrobli lyutnya cholg‘usini o‘sha davra keng tarqalgan cholg‘u deb hisoblaydi. Lyutnya o‘ziga xos mizrob (chertma) vositasida chalingan, dastasida esa ligatura (ladlar) joylashgan IX– X asrlarda lyutnya arabcha nomlanib, ud nomini oladi. Farobiy risolasida o‘zi yashagan davrda mavjud bo‘lgan rubob cholg‘usini ham batafsil tavsiflaydi. O‘sha davrda sharqning taniqli mutafakkiri, Safiuddin Urmaviy musiqa ilmiy tizimini rivojlantiradi. U usta ud cholg‘uchi, xonanda va mohir (Mussandif) - bastakor sifatida ham mashxur bo‘lgan.

Ud cholg‘usida olib borgan tajribalariga tayanib olim o‘z nazariy qoidalarini bayon etadi. Urmaviyning «Taqvodorlik kitobi»da ud – ta’rifi quyidagi so‘zlar bilan boshlanadi: «Bilingki, cholg‘ular orasida ud deb ataluvchi eng mashhur va eng zamonaviydir». Xulosa qilib aytganda, tarixiy risolalarda tasviriy san’atda va adabiy merosda ildizlari uzoq o‘tmishga borib taqaluvchi musiqa cholg‘ularining asosiy turlari haqida boy materiallar berilgan. Musiqa

cholg‘ulari yasovchi mohir ustalar: asrimiz boshlarida yashab ijod etgan usta Usmon Zufarov, usta Ro‘zmat Isaboev va ularning qator shogirdlarida, xalq ustalari bir parcha yog‘ochga, qamishga, suyakka yangi hayot ato etdilar. Ular yaratgan cholg‘u – asboblari hozirgi kunda ham keng qo‘llanilmoqda, xalqimizga xizmat etib, musiqa san’atimiz taraqqiyotiga o‘z hissasini qo‘shib kelmoqda.

Xulosa qilib aytganda, Tarixiy manbalarni ta’rif etar ekanmiz hozirgi kunda ham musiqa cholg‘ulari va ulardagi ijrochilik rivojlanib borayotganligini eslatib o‘tishni lozim topdik. Qadimiy cholg‘ulardan ud, qonun, tablak, doul kabi cholg‘ular va undagi ijrochilik keyingi 15-20 yil ichida qayta tiklandi hamda ushbu cholg‘u asboblari xalq cholg‘ulari ansamblini boyitdi. Cholg‘ularning qayta tiklanishi musiqa madaniyatimizning rivojida muhim o‘rin tutdi.

Shuningdek, Avesto va islomgacha bo‘lsan davriy san’atimizdagi xor jamoasi ijrochiligi va ushbu davr cholg‘ulari va ijrochilik san’atini o‘rganish va ajdodlarimiz san’atini tiklash va yosh avlodga o‘rgatish masalasida bo‘layotgan dolzarb muammoviy izlanishlar davom etmoqda deyish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.Avesta. Izbrannыe gimnы; Iz Videvdata.Per. s avest., predisl., primech. i slovar I.M. Steblin-Kamenskogo.// M.: Drujba narodov; KRAMDS - Axmed Yasovi. 1993.- 208 s.

2.Avesta. Xorde Avesta (Mladshaya Avesta) /Podgotovka avestiyskogo teksta, perevod,predislovie,kommentariy M. V. Chistyakova. – SPb., 2005.- 351s.

3.«Avesto».Tarixiy-adabiy yodgorlik. A. Mahkam tarjimasi –T.:Sharq nashriyoti-matbaa konserni. 2001.-b-28

4.Avesta v russkix perevodax (1861—1996) / Sost., obщ. red., primech., sprav, razd. I. V. Raka.— SPb.: Jurnal „Neva” — RXGI, 1997.- 147s.

5.Boys M. Zoroastriysы. Verovaniya i obыchai.//Per. s angl. i primech. I. M. Steblina-Kamenskogo. - SPb.: sentr «Peterburgskoe vostokovedenie», 1994.- 290 s

6.Zaratustra.Uchenie ognya.Gatы i molitvы.-M.:Eksmo,2008 – 200s.

7.Kuzmina Ye.Ye.. V strane Kavata i Afrasiaba. M.: Nauka, 1977. – s.143

8. S.Saidiy. O‘zbek musiqasi tarixi./Dareslik. BuxDU, “Durdona” nashriyoti. 2021.334 bet.

9.Saidiy S. Zardushtiy va Buddaviylar davri musiqa san’ati. T; “Moziydan Sado” nashriyoti. 2005.

10.Saidiy S.“Markaziy Osiyo madaniyatida urma cholg‘ular” (o‘zbek va tojik musiqa an’analari misolida);T; “Musiqa” nashriyoti. 2008.